



RANGTASVIRDA KOMPOZITSIYA YARATISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI

Baxtiyorxon Yuldasheva Jumavoy Qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tasviriy San'at va Muhandislik Grafikasi
yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan rangtasvir san'atida kompozitsiya yaratishning asosiy qonuniyatlari tahlil qilingan. Kompozitsiya san'at asarining mazmuni, g'oyasi va badiiy ta'sirchanligini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Unda yaxlitlik, markazni belgilash, mutanosiblik, kontrast va ritm kabi qonuniyatlarning o'rni alohida yoritilgan. Ushbu qonuniyatlarni o'rganish orqali o'quvchilar va rassomlar san'at asarlarining mazmunan boy, badiiy jihatdan ta'sirchan bo'lishiga erishadilar. Maqolada, shuningdek, rang va shakllarning uyg'unligi, ularning estetik tarbiyada tutgan o'rni haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, kompozitsiya, qonuniyat, yaxlitlik, mutanosiblik, kontrast, ritm, estetik tarbiya.

Annotation: This article analyzes the fundamental principles of creating composition in painting. Composition is a crucial means of expressing the idea, content, and artistic impact of a work of art. The principles of unity, focal point, proportion, contrast, and rhythm are particularly emphasized. Learning and applying these rules enable students and artists to create artworks that are both meaningful and aesthetically powerful. The article also discusses the harmony of color and form and their significance in aesthetic education.

Keywords: painting, composition, principle, unity, proportion, contrast, rhythm, aesthetic education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные закономерности создания композиции в живописи. Композиция является важнейшим средством выражения идеи, содержания и художественной выразительности произведения искусства. Особое внимание уделяется таким закономерностям, как целостность, определение центра, пропорция, контраст и ритм. Изучение и применение этих правил позволяет учащимся и художникам создавать произведения, которые являются содержательно богатыми и художественно выразительными. В статье также анализируется гармония цвета и формы, а также их значение в эстетическом воспитании.

Ключевые слова: живопись, композиция, закономерность, целостность, пропорция, контраст, ритм, эстетическое воспитание.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


Kirish. Kompozitsiya — bu san’at asarining mazmuni, g’oyasi va badiiy ta’sirchanligini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Rangtasvirda kompozitsiya yaratish jarayoni nafaqat tasviriy san’atning, balki insonning estetik idroki va badiiy dunyoqarashini shakllantirishning ham markaziy qismidir. Har qanday rasm yoki badiiy asarning ta’sir kuchi kompozitsiyaning qanchalik mukammal tashkil qilinganiga bog’liq.

Kompozitsiyada asosiy qonuniyatlar — yaxlitlik, mutanosiblik, markazni belgilash, kontrast va ritm uyg’unligi sanaladi. Ushbu qonuniyatlarni to’g’ri qo’llash orqali rassom asarda g’oya va mazmuni aniq ifodalashga, tomoshabinning e’tiborini kerakli nuqtaga jalb qilishga erishadi. Boshlang’ich ta’lim va san’at o’rganish jarayonida ushbu qonuniyatlarni o’rgatish bolalarda nafaqat chizmachilik ko’nikmalarini, balki ijodiy tafakkur va estetik didni ham rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Kompozitsiya nazariyasi qadimdan san’atshunoslar, rassomlar va pedagoglar tomonidan tadqiq qilingan. Rangtasvir asari yaratishda rang surtmalari ifoda vositasi sifatida qo’llaniladi. Rassomlar rangtasvirda rang surtmalarining turli shakllaridan foydalanadilar. Bu surtmalar rassomning ish uslubini belgilab beradi. Mashxur rassom Van Gog “SanMaridagi dengiz” asarini yaratishda rang surtmalarini o’rinli qo’llaganini ko’rishimiz mumkin. O’zbekistonlik rassomlar rang surtmalaridan tasviriy san’atning ifodaviy vositasi sifatida manzara, natyurmort janrlarida ham mahurat bilan ijod qilganlar. Musavvirlar M.Nabiyevning “Amir Temur portreti”, R.Ahmedovning “Yoz ne’matlari” mavzuyida ishlangan asarlarida rang surtmalari o’rinli qo’llangan. Tasviriy san’atning rangtasvir turini asosi ranglar hisoblanadi. Rangtasvirda asarning emotsional ta’sir kuchini oshirish maqsadida uning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda, ranglarning issiq va sovuq turlaridan foydalaniladi. Issiq va sovuq gammadagi ranglar ko’proq manzara janrida qo’llaniladi. Quyoshning botishi, issiq kun, yoz, kuz mavzulari issiq ranglarda tasvirlansa, qish, qor, ayozli kun manzaralari sovuq ranglarda tasvirlanadi. Rangtasvir asarlarini ishlashda chiziq va ranglarning o’zaro bir birini qo’llab quvvatlaganda kompozitsiya aniq va tushunarli bo’ladi. Asarning tomoshabinga ijobiy ruh berishligi uchun bundan tashqari kompozitsion yechimi, mazmuni, tasviriy vositalardan oqilona foydalanilganligi ham muhim ahamiyatga egadir. Kompozitsiya so’zining lotincha “composito” so’zidan o’zbek tilidagi ma’nosiga o’rganib chiqsak, “tuzish, birlashtirish, bog’lash, bir butun yaxlitlikda jamlash” ma’nolarini anglatishini bilib olamiz. Demak rangtasvir asarini ishlash uchun eng avvalo mavzuning mazmundorligiga, uning chiziqlar orqali shakl va obrazlarning tuzilishiga, ularning joylashuviga, ranglardan to’g’ri foydalanib umumiy rang uy’gunligiga ahamiyat berish lozim.

O’zbek olimlari va pedagoglari — M. Jumaniyozov, S. Usmonov, D. Axmedova tasviriy san’at darslarida kompozitsion yondashuvni o’quvchilarni ijodiy tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida baholaydilar. Metodologiya nuqtayi nazaridan maqolada taqqosiy tahlil, kuzatish va nazariy umumlashtirish usullari qo’llanildi. Shuningdek, amaliy tajriba





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

va pedagogik kuzatuvlarga asoslanib rangtasvirda kompozitsiya yaratishning asosiy qonuniyatlari aniqlab chiqildi.

Leonardo da Vinci o'z ijodiy faoliyatida mutanosiblik va markaziy nuqtani belgilash orqali kompozitsiyaning ta'sirchanligini ta'minlagan.


Albertining "San'at haqida risola" asarida kompozitsiya va perspektivaning uyg'unligi tasviriy san'atning asosiy tamoyili sifatida ko'rsatilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar — E. Panofskiy, A. X. Gabrichevsky va boshqalar san'at asarlarida kompozitsiyaning mazmun bilan uyg'unligini tahlil qilgan.

O'zbek olimlari va pedagoglari — M. Jumaniyozov, S. Usmonov, D. Axmedova tasviriy san'at darslarida kompozitsion yondashuvni o'quvchilarni ijodiy tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida baholaydilar. Metodologiya nuqtayi nazaridan maqolada taqqosiy tahlil, kuzatish va nazariy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Shuningdek, amaliy tajriba va pedagogik kuzatuvlarga asoslanib rangtasvirda kompozitsiya yaratishning asosiy qonuniyatlari aniqlab chiqildi.

Muhokama va natija

Muhokama va natijalarni tahlilida rangtasvir asarini ishlash uchun eng avvalo oddiy qoralama va eskizlar orqali boshlanadi. Rassom asar ishlash uchun tayyorgarlik jarayonida qanday mavzuni yoritishidan qat'iy nazar mavzu yuzasidan turli hildagi materiallarni to'playdi va ushbu to'plangan materiallarni qoralama chizgilarini, etyudlarini ishlab ma'lumotlarini jamlab, to'ldirib boradi. Asarning mazmunini ochib berish uchun turli hildagi obrazlar ustida ish olib boradi. Ushbu obrazlar orqali asar mazmunini yoritishda unumli foydalanish rassomning mahoratiga bog'liqdir. Ijodkor o'z g'oyalarini ko'rsatishda kam obraz va detallardan foydalanib ushbu g'oya mazmunini to'la ochib bersa bu uning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Aksincha shakl va obrazlarga boy, chiziq va ranglarda murakkablik bo'lgan taqdirda ham asar mazmuni to'la ochib berilmasa, bu rassomning obrazlardan oqilona foydalana olmaganligidan dalolat beradi. Bunday yondoshib ishlangan rangtasvir asari kompozitsion nuqsonli asar sifatida e'tirof etiladi. Rassom har bir ishlagan qoralamalarini rivojlantirish uchun bo'yoqlar orqali ularning etyudlarini ishlab kompozitsiya uchun materiallar to'plashda davom etadi. Etyudlar ishlash jarayonida ijodkor kompozitsiya uchun kerakli har bir shakl, buyum yoki manzarani mavzuning to'la ochi berish uchun eng maqbul rang koloridiga mos tarzda ishlashi kerak bo'ladi. Sababi ishlanayotgan rangtasvir asarining g'oyasi g'amgimlik, tushkunlik, qayg'u, urush va shunga o'xshash salbiy mavzuda bo'lsa ranglarning inson psixologiyasiga ta'sir doirasidan kelib chiqib ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kompozitsiyalarga sovuq ranglar guruhi va axromatik ranglardan ko'proq foydalanilgan kolorid ko'p hollarda mos keladi. Quvonch, bayram, tantana, quvonch va shunga o'xshash ko'tarinki kayfiyatdagi kompozitsiyalarga xromatik ranglardan foydalanib yorqin ranglardan hosil o'lgan kolorid mavzuni ochib berishga yordam beradi. Maishiy va jiddiy mavzularga murojat qilinganda murakkab va sokin ranglardan foydalanish kerak. Ranglar bilan bog'liq etyudlar kompozitsiya uchun





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yetarlicha to'plangandan so'ng ularni qog'oz yoki matoga to'g'ri joylashuvini amalga oshirish lozim. Qog'oz yoki matoni o'lchami kompozitsiyani mavzusi va joylashuviga qarab to'g'ri tanlanishi kerak. O'lchamlar gorizantal yoki vertikal holatdagi bir biriga nisbatan katta yoki kichik to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishi mumkin. Ba'zi holatlarda kompozitsiya uchun kvadrat shaklidagi yuza kerak bo'ladi. Kompozitsiya mavzusidan keilib chiqib turli hil ko'rinishda obrazlarni joylashtirish mumkin.

Rangtasvirda kompozitsiya yaratishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

Yaxlitlik (integrallik) qonuniyati. Asarning barcha elementlari mazmun va shakl jihatidan uyg'un holda bo'lishi kerak. Masalan, fon, asosiy figura va qo'shimcha detallar o'zaro mutanosiblikda joylashtirilsa, asar yaxlitlik kasb etadi.

Markazni belgilash. Kompozitsiyada asosiy e'tibor qaratiladigan nuqta mavjud bo'lishi lozim. Bu markaziy nuqta orqali rassom asarning asosiy g'oyasini tomoshabinga yetkazadi.

Mutanosiblik qonuniyati. Shakllar, ranglar va detallar o'rtasidagi nisbatlarning to'g'ri tanlanishi asarning badiiy ta'sirchanligini oshiradi.

Kontrast qonuniyati. Yorug'-soya, katta-kichik, rang tuslari o'rtasidagi qarama-qarshilik asarda dinamika hosil qiladi va tomoshabinning e'tiborini jalb etadi.

Ritm qonuniyati. Shakllar, ranglar va elementlarning muayyan takrorlanishi asarda musiqiylik va uyg'unlik hosil qiladi. Ritm bolalarga estetik sezgi berishda samarali vosita hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at darslarida ushbu qonuniyatlarni o'rgatish orqali o'quvchilarda ijodiy qobiliyat, estetik did, kuzatuvchanlik va mustaqil fikrlash rivojlanadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytishim mumkinki Rangtasvirda kompozitsiya yaratish san'at ta'limining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, u rassomlik faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Yaxlitlik, markazni belgilash, mutanosiblik, kontrast va ritm qonuniyatlari asosida yaratilgan asarlar badiiy jihatdan ta'sirchan va mazmunan boy bo'ladi.

Boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichida bu qonuniyatlarni o'rgatish nafaqat bolalarda tasviriy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ularning ijodiy tafakkurini, estetik dunyoqarashini va san'atni anglash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Leonardo da vinci. Traktatlar va rasmlar haqida yozuvlar. – rim, 1519.
2. Alberti l. B. San'at haqida risola. – florensiya, 1435.
3. Panofsky e. Meaning in the visual arts. – new york: doubleday, 1955.
4. Gabrichevsky a. X. *Iskusstvo i kompozitsiya*. – moskva: iskusstvo, 1970.
5. Jumanioyov m. Tasviriy san'at metodikasi. – toshkent: o'qituvchi, 2019.
6. Usmonov s. Boshlang'ich ta'lim metodlari. – toshkent: fan va texnologiya, 2020.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

7. Axmedova d. San'at ta'limida innovatsion metodlar. – samarqand: zarafshon, 2021.
8. Vygotsky I. S. Imagination and creativity in childhood. – cambridge: mit press, 2004.
9. Lowenfeld v. Creative and mental growth. – new york: macmillan, 1987.
10. Eisner e. W. The arts and the creation of mind. – yale university press, 2002.
11. Bakhtiyorovich, ismonov khurshidbek, and ruziyev nuriddin mukhammadaliyevich. "pairing, their own aspects and corresponding methods of work with pairing in the autocad software." international journal on orange technologies 3.12 (2021): 211-216.
12. Qizi abduraimova, muazzamoy abduqodir. "perspektiva." international conferences. Vol. 1. No. 11. 2022.
13. Xurshidbek, ismonov, rustamov umurzoq, and abduraimova muazzamoy. "markaziy va parallel proyeksiya ortogonal proyeksiyalar va modelni ko 'rinishlari." educational research in universal sciences 1.4 (2022): 70-81.
14. Ismonov, xurshidbek baxtiyorovich, and muazzamoy abduqodir qizi abduraimova. "ortogonal proyeksiyalar va modelni ko 'rinishlari." educational research in universal sciences 1.3 (2022): 288-296.
15. Qizi, abduraimova muazzamoy abduqodir. "projection and axonometry."
16. "umum ta'lim maktablarda chizmachilik fanini o'qitishning hozir holati." oriental art and culture, vol. 5, no. 6, 2024, pp. 65–69.
17. "kompozitsiya asoslari" a. Egamov. Toshkent. 2005-yil
18. "воспоминания, статьи, письма", д.н. Кардовский, москва, 1960-yil
19. "tasviriy san'at", t.kuziyev, s. Abdirasilov, o'.nurtoev, a.sulaymonov. Toshkent, 2015-yil
20. "мастера искусства об искусстве".1-том. Москва, 1936-yil
21. oglu tojiboyev, i. O. (2021). On the use of modern pedagogical technologies and general grammar in the teaching of english. Science and education, 2(8), 718-720.
22. tojiboyev islom odil o'g'li. (2020). Flactors in speech development in english and other languages. International journal of discourse on innovation, integration and education, 1 (3), 144-146. Retrieved from <http://summusjournals.com/index.php/ijdiie/article/view/278>

